
TOSHLOQLIK JUMAGULXON JABBOROVA "BESH TASHABBUS OLIMPIADASI" RESPUBLIKA BOSQICHI G'OLIBI BO'LDI

Yaqinda "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida sportning Stol tennisi turi bo'yicha Respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Davlatimiz rahbarining joriy yil 11 apreldagi "Mahallalarda yoshlarni ommaviy sportga jalb qilishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida mahallalarda yoshlarning ommaviy sport bilan shug'ullanishlari uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash va sport inshootlarini zamonaviy sport jihozlari bilan ta'minlash, shuningdek, imkoniyati cheklangan yoshlar uchun tegishli sport infratuzilmasini yaratish ommaviy sportni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilandi.

Sportning Stol tennisi turi bo'yicha Respublika bosqichi joriy yilning 4-6 dekabr kuni Jizzax viloyatida bo'lib o'tdi. Musobaqada Toshloq tumani Chek MFYdan Jumagulxon Jabborova 27-30 yosh toifasida "S"liga bo'yicha qatnashib, faxrli birinchi o'rinni egalladi.

Musobaqa g'olibi Jumagulxon Jabborovaga Chek MFYga "Universal sport maydonchasi" qurilishi uchun sertifikat topshirildi.

2022-12-09 08:58:55